

статей по итогам Международной научно-практической конференции (Новосибирск, 02.10.2019 г.). – Стерлитамак: АМИ, 2019. – С. 26-28.

3. Современные информационные технологии в сфере образования: возможности и перспективы / П.Н. Медведев, Д.В. Малий, Е.С. Папочкина // Международный научно-исследовательский журнал. – 2021. – № 6 (108). – Часть 4. – С. 110-113. DOI: <https://doi.org/10.23670/IRJ.2021.108.6.119>

TA'LIM JARAYONI ISLOHATLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI

(PhD) Alibekov Davron Abdurakibovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

alibekovdavron252@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohatlar, ta'lim infratuzilmalari, ta'limni innovatsion rivojlantirish, xorijiy davlatlarning ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlar va ularning qiyosiy tahlili haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, innovatsiya, infratuzilma, rivojlantirish, strategiya, integratsiya, jamiyat, barqarorlik, qadriyat, dunyoqarash.

Ta'lim tizimini isloh qilmasdan turib, zamon talablariga javob bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash, tajribali kadrlarsiz esa, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni qiyin kechishi, tabiiy. Bu o'z o'rnida, ta'lim sohasida muntazam rivojlanishni ta'minlash, istiqlolning dastlabki yillaridanoq yangicha fikrlaydigan va ishlaydigan kadrlar tayyorlash siyosatini ishlab chiqishni taqozo etdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim yoshidagi bolalarni ta'lim muassasalariga qamrab olish muammosi to'liq hal etilgan. Umumiy ta'limni tashkil etishdagi bunday yondashuv natijasida, mamlakatdagi aholi savodxonligi darajasi bo'yicha 99,3 foizni tashkil etib, Italiya (98,4 foiz), Ispaniya, Janubiy Koreya (98 foiz) va Isroil (97,1 foiz) kabi iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan mamlakatlarni ortda qoldirmoqda [1].

Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlari, ilmiy izlanishlar va uning natijalarini ishlab chiqarishga innovatsion asosda joriy etish jamiyat ijtimoiy hayotini har tomonlama barqaror yuksalishiga olib keladi. Ta'lim va fan uyg'unligi va integratsiyasi chuqur ta'minlanadigan bo'lsa, innovatsion faoliyat rivojlanadi, natijada jamiyat va inson faravonligi ta'minlanadi. Hozirgi zamonaviy sharoitda mamlakatimizda fan olamidagi ishlanmalar va innovatsiyalarni rivojlantirishga ehtiyoj oliy ta'lim muassasasida ishlovchi olimlardan katta ilmiy mas'uliyat talab etmoqda. Natijada olimlar yangi zamonaviy bilimlar, yangiliklar yaratish ko'nikmalarini egallash borasida innovatsion faollikka ega bo'lib bormoqdalar.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ularning yutuqli jihatlarini mamlakat ta'lim tizimiga

moslashtirgan holda tatbiq etish muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini taklif etish maqsadida bir qator xorijiy davlatlarning tajribasi o'rganildi.

Xorijiy amaliyotida oliy ta'limda davlat tomonidan ilmiy va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish ishlari muhim bosqichlarda amalga oshiriladi. Angliyada oliy ta'limda innovatsiyalarni rivojlantirish strategik moliyalash bir yo'la beriladigan subsidiyalar orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotlar kengashlari mamlakatda tadqiqotlarga loyiha asosida universitetlarga investitsiya kiritadi. Demak davlat tomonidan bir yo'la havola etiladigan subsidiyalar oliy ta'limda innovatsion rivojlanishda barqarorlikni va strategik resurslarni doimiyligini ta'minlaydi.

AQShda maktab bolalarining bilim darajasiga qarab A, V, S guruhlarini tashkil etiladi. Shundan kelib chiqib, har bir sinfga talab oshib boradi. Barcha o'quvchilar 9-sinf boshlanishi oldidan test sinovlaridan o'tkaziladi. Test sinovlarini 90 foizdan yuqori natija bilan yakunlagan o'quvchilarga akademik yo'nalishda ta'lim olish tavsiya etiladi [2]. Natijasi 90 % dan past o'quvchilar amaliy ta'lim yo'nalishida o'qishni davom ettiradi. Sanoat yo'nalishidagi sinflarda darslarning yarmi maktab ustaxonasida olib boriladi. Ularda umumta'lim darslari qisqartirib o'tiladi. Umumiy tayyorgarlik yo'nalishi esa, umumiy bilimlarni berib, ushbu bilimlar kasb tanlash uchun yoki oliy ta'limda o'qishni davom ettirish uchun yetarli emas. Shu sababli oxirgi yillarda ushbu yo'nalish qattiq tanqidlarga uchramoqda.

Rossiya Federatsiyasida ta'lim muassasalari davlat, munitsipal va xususiy muassasalarga bo'linadi. Umumiy ta'lim Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimida majburiy hisoblanadi. Maktab yoshiga yetgan o'quvchilar barcha umumta'lim muassasalariga kirish imtihonlarisiz (sinov, test, tanlov va boshqa jarayonlarsiz) qabul qilinadi. Rossiya ta'lim tizimi eksternat tartibida ham ta'lim olishni kafolatlaydi.

Rossiya federatsiyasida ta'lim tizimida innovatsion rivojlantirish borasidagi bir qator olib borilgan islohotlar o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar uchun bir qator qulayliklar va afzalliklar yaratib beradi. Mazkur mamlakatda ta'lim olishda eksternat tizimini ham joriy etilishi o'quvchi va talabalar ichidan iqtidorlilarini tanlab olish, ularni rag'batlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazish bilan bog'liq masalalarni yechishda qo'l keladi. Bu esa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ta'limiy munosabatlarda uyg'unlik va mutanosiblikni ta'minlaydi.

Koreya Respublikasi ta'lim tizimi o'zida o'ziga xos innovatsion o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Koreya Respublikasida "Ta'lim haqida"gi qonun 1948 yilda qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy G'arb modeli olingan. Koreya Respublikasi ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim (majburiy bo'lmagan), 6 yillik boshlang'ich ta'lim (6 yoshdan), o'rta maktab (o'qish muddati 3 yil), oliy darajali o'rta maktab (o'qish muddati 3 yil), oliy ta'limdan iborat.

Koreya oliy darajali o'rta maktablari ikkiga: umumiy va professional-texnik shakllarga bo'linadi. Umumiy profildagi maktablarda o'quvchilar gumanitar, ijtimoiy va tabiiy fanlar san'at va xorijiy tillarni o'rganishadi. Professional-texnik maktablar esa o'quvchilarga kompyuter texnikasi, ma'muriy ish yuritish, umumiy mashinsozlik, qishloq xo'jaligi va dengiz ishlari bo'yicha bilimlar berishga ixtisoslashgan. Shunga qaramasdan aytish mumkinki, oliy darajadagi o'rta maktablarning asosiy vazifasi o'quvchilarni oliy o'quv yurtiga tayyorlash hisoblanadi. Mazkur maktab

bitiruvchilarining olgan baholari oliy o'quv yurtiga kirish imkoniyatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat o'quvchilar dars mashg'ulotlaridan so'ng qo'shimcha tayyorlov yoki repititorlik kurslariga qatnashadilar. Asosiy e'tibor matematika va ingliz tilini o'rganishga ajratiladi.

Yaponiya ta'lim tizimi ham o'ziga xos rivojlanish tendensiyalarini o'zida mujassamlashtirgan. Yaponiya ta'lim tizimining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan bo'lib, 1872 yilda "Ta'lim haqida"gi qonun qabul qilingan. Unga ko'ra, Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillik qilib belgilangan. Mamlakat konstitutsiyasi fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va erkinliklarini belgilab berib, unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan [3]. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari.

Singapurning oliy maktab intellektual kapitalini rivojlantirish borasidagi tajribasi ham diqqatga sazovor. Singapurda ham "ASTAR" fan, texnologiyalar va tadqiqotlar agentligi mavjud bo'lib, u fan va texnologiyalar davlat sektorini nazorat qiladi, 12 ta ilmiy tadqiqot institutini boshqaradi, universitetlar va boshqa tuzilmalarga grantlar ajratib, mamlakatning yosh olimlarini jahonning eng yaxshi oliy o'quv yurtlariga yuboradi. Iqtidorli olimlar uchun turli mukofotlar va stipendiyalar to'lanadi. Doktorlik ishidan keyingi tadqiqotlar "ASTAR" xalqaro tashkiloti tomonidan to'lanadigan stipendiyalar hisobidan moliyalanadi [4].

Mazkur misoldan ko'rinib turibdiki, Singapurda innovatsion rivojlanish inson intellektual qobiliyatini rivojlantirish, ilmiy sohani rivojlantirish uchun uni oliy ta'lim bilan chuqur integratsiyasini ta'minlash, ilm-fan sohasida davlat sektorini ulushini saqlab qolgan holda uni boshqarishni jamiyat taraqqiyotining strategik vazifasi deb belgilashi muhim va diqqatga sazovor jihatlardan biridir. Shuningdek, mazkur davlatda yosh iqtidorli kadrlarni xorijga, jahonning eng yaxshi o'quv yurtlariga jo'natish, ilmiy tadqiqotchilarga yuqori darajadagi stipendiyalar va maoshlar belgilanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga tamal toshini qo'yib, jamiyatning yuqori ilmiy-innovatsion natijalarga oid istiqbolini belgilaydi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim tizimi bo'yicha keltirilgan Osiyo davlatlari ta'lim tizimining G'arb davlatlari ta'lim tizimidan farqli jihati shundaki, bugungi kunda Osiyo davlatlarida G'arbga nisbatan odob-axloq qoidalari va qadriyatlarga kengroq rioya etib kelinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston xalqi ta'lim tizimi mental xususiyatlariga ham ushbu davlatlar ma'naviy-madaniy dunyoqarashi va e'tiqodlari ko'p tomonlama mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inson tarraqqiyoti BMT ma'lumotlari.
www.undp.org/.../uzbekistan/.../mdg_bk_uzb_preview.pdf
2. Amerikanskaya sistema obrazovaniya.
<http://www.psychologos.ru/articles/view/> mart, 2015.
3. Markaryans S. Yaponiya: Gosudarstvennaya politika v oblasti obrazovaniya //Ekonomicheskoe obozrenie, 2003, №1(43) –S. 6.

4. National Framework for Research, Innovation and Enterprise. URL:<http://www.nrf.gov>.

5. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>

6. Alibekov, D. (2021). SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa. *Jurnal muzyki i iskusstva*, 2(2).

7. Farsakhanova, Dilafruz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).

8. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).

INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

PhD, as.prof. Khakimov Zhamshid Oktyamovich

Tashkent State Technical University, Uzbekistan

khakimov-jamshid@mail.ru

Annotation: The article discusses the issue of developing the intellectual competence of gifted students through the use of information and communication technologies in the educational process.

Key words: informatization, intellectual, potential, formation, operational control, level assessment.

Education is an inextricable part of any society, an indicator of its culture and the basis of progress. As a connecting link, it ensures the unity and continuity of experience, spiritual, moral and cultural traditions, and the progressive development of society.

The main thing in the work of an educational institution is the optimal fulfillment of the social order for the formation of a competent graduate through the introduction of information and communication technologies into the educational process.

One of the priority areas of informatization of modern society is the informatization of education - the process of providing the education sector with methodology and practical development and rational use of information and communication technologies

The use of modern information technologies in education makes it possible to significantly overcome the conservatism and rigidity of the framework of traditional educational systems and create an open educational space in which the student is not an object, but a subject of education, independently shaping his own educational trajectory.

The main goal of education is not only the assimilation of a huge and ever-increasing amount of knowledge, or at least orientation in the flow of ever-increasing